

IBN XALDUN FALSAFIY TAFAKKURIDA DIN, AXLOQ VA IJTIMOYIY TARAQQIYOT MUAMMOSI

Qayumova Aziza Toshmuradovna, Buxoro davlat universiteti ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE PROBLEM OF RELIGION, MORALITY, AND SOCIAL DEVELOPMENT IN IBN KHALDUN'S PHILOSOPHICAL THOUGHT

Kayumova Aziza Toshmuradovna, Associate Professor of the Department of Social and Political Sciences, Bukhara State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology

ПРОБЛЕМА РЕЛИГИИ, ПРАВСТВЕННОСТИ И СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В ФИЛОСОФСКОМ МЫШЛЕНИИ ИБН ХАЛДУНА


Каюмова Азиза Тошмурадовна, доцент кафедры социально-политических наук Бухарского государственного университета, доктор философии (PhD) по социологии



<https://orcid.org/0000-0002-4069-9261>

e-mail:

a.t.qayumova@buxdu.uz



Annotatsiya: Ushbu maqolada Ibn Xaldunning din va jamiyat munosabatlariga oid sotsiologik qarashlari tahlil qilinadi. Mutafakkirning diniy qadriyatlar, axloqiy tizimlar va ijtimoiy integratsiya haqidagi g'oyalari zamonaviy sotsiologiya nazariyalari bilan qiyosiy o'rganiladi. Din jamiyatning barqaror rivojlanishida birlashtiruvchi kuch, ijtimoiy tartib va axloqiy me'yorlar manbai sifatida izohlanadi. Shuningdek, maqolada mutafakkir qarashlarining bugungi jamiyat, xususan, O'zbekiston sharoitida diniy-ma'naviy muhitni mustahkamlashdagi amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: jamiyat, ijtimoiy integratsiya, axloqiy tizim, asabiyya, badava, hadhara, ijtimoiy norma, ijtimoiy barqarorlik, jamoaviy ong.

Аннотация: В статье проводится анализ социологических взглядов Ибн Халдуна на взаимоотношения религии и общества. Идеи мыслителя, касающиеся религиозных ценностей, нравственных систем и социальной интеграции, рассматриваются в сравнительном аспекте с теориями современной социологии. Религия трактуется как объединяющая сила, обеспечивающая устойчивое развитие общества, а также как источник социального порядка и нравственных норм. Кроме того, обосновывается практическая значимость взглядов мыслителя для современного общества, в частности в условиях Узбекистана, в процессе укрепления религиозно-духовной среды.

Ключевые слова: общество, социальная интеграция, нравственная система, асабийя, бадава, хадара, социальная норма, социальная стабильность, коллективное сознание.

Abstract: This article analyzes Ibn Khaldun's sociological views on the relationship between religion and society. The thinker's ideas concerning religious values, moral systems, and social integration are examined in comparative perspective with modern sociological theories. Religion is interpreted as a unifying force that ensures the stable development of society, as well as a source of social order and moral norms. In addition, the article substantiates the practical significance of Ibn Khaldun's views for contemporary society, particularly in the context of Uzbekistan, in strengthening the religious and spiritual environment.

Keywords: society, social integration, moral system, asabiyyah, badawa, hadara, social norm, social stability, collective consciousness.

KIRISH. Din va jamiyat munosabatlari insoniyat tamadduni tarixida eng muhim ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri hisoblanadi. Dinning jamiyat hayotidagi o'rnini, uning ijtimoiy tartibot, axloqiy tizim va jamoaviy ong shakllanishidagi funksiyalari qadimdan mutafakkirlar e'tiborida bo'lib kelgan. Xususan, Sharqning buyuk olimi Ibn Xaldun bu masalani o'zining "Muqaddima" asarida chuqur tahlil qilib, dinni jamiyatning birlashtiruvchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi kuch sifatida talqin etadi[1].

Ibn Xaldun ta'limotida jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida diniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar alohida o'rin tutadi. Uning fikricha, jamiyatdagi integratsiya jarayonlari faqat moddiy omillar bilan emas, balki ma'naviy birlik va umumiy maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy birdamlik — "asabiyya" orqali mustahkamlanadi. Mutafakkir ilgari surgan "badava-hadhara" modeli esa diniy qadriyatlarning ko'chmanchi va shaharlik jamiyatlar hayotidagi o'rnini tahlil qilishga imkon beradi[2].

Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlash borasidagi islohotlar sharoitida Ibn Xaldun ta'limotidagi dinning jamiyatdagi o'rnini haqidagi g'oyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur maqolada mutafakkirning din va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, uning bugungi ijtimoiy hayot uchun metodologik va amaliy ahamiyati yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Din va jamiyat munosabatlari masalasi jahon ilm-fanida qadimdan yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, ushbu mavzu yuzasidan ko'plab falsafiy, tarixiy va sotsiologik tadqiqotlar olib borilgan. Avvalo, G'arb sotsiologiyasi klassiklari E.Dyurkgeym, M.Veber, T.Parsons kabi olimlar diniy institutlarning jamiyatdagi funksiyalari, ijtimoiy tartibot va birdamlikni ta'minlashdagi o'rnini haqida muhim nazariy qarashlarni ilgari surganlar. Dyurkgeym dini jamiyatning "axloqiy sistemi" sifatida baholagan bo'lsa, Veber dinning iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta'sirini tadqiq etgan,

Parsons esa diniy me'yorlarning ijtimoiy tizimdagi integrativ funksiyasini asoslab bergan[3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ibn Xaldunning din va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari o'zining murakkabligi, ko'p qatlamliligi hamda chuqur sotsiologik mazmuni bilan ajralib turadi. Uning "Muqaddima"sida ilgari surilgan nazariy yondashuvlar nafaqat o'rta asr Sharqining diniy-siyosiy hayotini anglashga, balki zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishida dinning tutgan o'rnini baholashga ham imkon beradi. Ibn Xaldun dinni ikki asosiy jihatdan tahlil qiladi: birinchisi, dinning ijtimoiy birdamlik (asabiyya)ni shakllantirishdagi ahamiyati; ikkinchisi, dinning axloqiy tizim va siyosiy tuzumni mustahkamlovchi kuch sifatidagi roli.

Birinchidan, mutafakkirning "asabiyya" konsepsiyasi dinning jamiyatdagi integrativ funksiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Unga ko'ra, jamoaning ichki mustahkamligi, uning maqsadga yo'naltirilgan harakati va siyosiy barqarorlikning asosiy omili ma'naviy birlikdan kelib chiqadi. Bu birlik ko'pincha diniy qadriyatlar, e'tiqod va umumiy axloqiy me'yorlar asosida shakllanadi. Zamonaviy sotsiologiyada bunday integrativ funksiyalar E.Dyurkgeymning dinni "ijtimoiy birdamlik manbai" sifatida talqin qilishi bilan hamohangdir. Dyurkgeym dini "jamoaviy ongning ifodasi" deb baholagan bo'lsa, Ibn Xaldun uni siyosiy barqarorlik va ijtimoiy kuchning qudratli manbai sifatida ko'radi.

Ikkinchidan, Ibn Xaldun "badava-hadhara" modeli orqali dinning jamiyat taraqqiyotidagi farqli funksiyalarini ko'rsatadi. Ko'chmanchi jamiyatlarda din asosan birdamlikni mustahkamlovchi ma'naviy omil sifatida namoyon bo'lsa, shaharlik jamiyatlarda u murakkab siyosiy strukturalar, huquqiy tizim va madaniy institutlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Uchinchidan, Ibn Xaldun qarashlarida dinning axloqiy tizimlarni shakllantirishdagi o'rnini ham alohida e'tibor talab qiladi. Mutafakkirga ko'ra, jamiyatning rivojlanishi faqat iqtisodiy omillar bilan belgilanmaydi; aksincha, axloqiy me'yorlar va ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy tartibning asosiy poydevoridir. Zamonaviy sotsiologiyada T.Parsons tomonidan ishlab chiqilgan struktur-funksional yondashuv ham

jamiyatning barqarorligi axloqiy tizimning kuchiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Demak, Ibn Xaldun fikrlari nafaqat tarixiy qiymatga ega, balki zamonaviy nazariyalar bilan ham uyg'unlashadi[4].

To'rtinchidan, bugungi globallashuv sharoitida dinning ijtimoiy o'rni yanada murakkablashmoqda. Axborot oqimlarining keskin tezlashuvi, madaniy aralashuvlar, migratsiya jarayonlari va dunyoqarashlarning turlicha talqin qilinishi jamiyatlarda diniy-sotsial muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Ibn Xaldunning dinning birdamlikni ta'minlovchi kuch sifatidagi qarashlari yuqori darajada amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatlar uchun ma'naviy birlikni saqlash masalasi mutafakkirning g'oyalari bilan bevosita bog'liq.

Beshinchidan, O'zbekiston misolida ham dinning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega. Mamlakatda so'nggi yillarda diniy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, yoshlar ongida radikal g'oyalarga qarshi immunitet yaratish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ibn Xaldunning dinning jamoani birlashtiruvchi va axloqiy tizimni mustahkamlovchi vazifalariga oid qarashlari bu jarayonlarga nazariy asos bo'lishi mumkin.

Shu tariqa, Ibn Xaldunning din va jamiyatga doir g'oyalari zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga tatbiq etilganda, ular jamiyat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish va axloqiy tizimlarni mustahkamlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Uning qarashlari diniy tizimlarning jamiyat hayotidagi o'rnini tushunishda nafaqat tarixiy manba, balki zamonaviy metodologik yondashuv sifatida ham xizmat qilmoqda[5].

Ushbu tadqiqot asosida Ibn Xaldunning din va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari chuqur tahlil qilinarkan, bir necha muhim ilmiy xulosalar va nazariy-amaliy natijalarga erishildi. Avvalo, mutafakkirning diniy qadriyatlar, axloqiy tizimlar va ijtimoiy integratsiyaning mohiyatiga doir fikrlari zamonaviy sotsiologiya nazariyalari bilan uyg'unlashib, bugungi ijtimoiy jarayonlarni izohlashda o'z dolzarbligini saqlab qolayotganligi aniqlandi.

Birinchidan, Ibn Xaldunning "asabiyya" konsepsiyasi dinning jamiyatdagi birlashtiruvchi kuch ekanligini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, din jamoaviy ongni shakllantirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va umumiy maqsad sari harakatlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu jihat zamonaviy integrativ yondashuvlar – ayniqsa, Dyurkgeymning "kollektiv ong" tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir.

Ikkinchidan, Ibn Xaldunning "badava–hadhara" modeli diniy me'yorlarning jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta'sir qilishini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ko'chmanchi jamiyatlarda din birdamlik va ijtimoiy tartibni mustahkamlovchi asosiy omil bo'lsa, shaharlik jamiyatlarda u madaniy tizimlar, siyosiy institutlar va huquqiy me'yorlarning shakllanishida alohida o'rin tutadi.

Uchinchidan, tadqiqot jarayonida dinning axloqiy tizimlarni shakllantirishdagi metodologik ahamiyatiga e'tibor qaratildi. Ibn Xaldunning fikrlari shuni ko'rsatadiki, jamiyat barqarorligining kafolati moddiy boylik yoki siyosiy kuch emas, balki axloqiy birlik, halollik, adolat va umumiy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq.

To'rtinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, globallashuv sharoitida dinning jamiyatdagi o'rni yanada murakkablashgan bo'lsa-da, uning integrativ va stabilizator sifatidagi funksiyalari o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Turli madaniyatlararo to'qnashuvlar, diniy radikalizm, migratsiya jarayonlari kuchaygan bir davrda Ibn Xaldunning dinning ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi kuch sifatidagi ta'riflari dolzarbligini yanada oshiradi.

Beshinchidan, O'zbekiston sharoitida olib borilgan diniy-ma'rifiy islohotlar va jamiyat barqarorligini ta'minlashga qaratilgan siyosat bilan Ibn Xaldun ta'limoti o'rtasida mushtarak jihatlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Xususan, diniy bag'rikenglik, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot, yoshlarni sog'lom ijtimoiy qarashlar asosida tarbiyalash va jamiyatda totuvlikni mustahkamlash kabi jarayonlar mutafakkirning g'oyalari bilan uyg'unlashadi.

Oltinchidan, tadqiqot jarayonida Ibn Xaldunning qarashlari zamonaviy sotsiologiya klassiklari – Veber, Dyurkgeym, Parsons – nazariyalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijada, Ibn

Xaldunning dinning ijtimoiy funksiyalari haqidagi qarashlari ko'plab jihatlarida zamonaviy yondashuvlarning dastlabki asoslari bo'lib xizmat qilgani aniqlangan holda, uning nazariy merosi global miqyosda sotsiologik fikr rivojiga ta'sir ko'rsatgani isbotlandi.

Yettinchidan, tadqiqot natijalari Ibn Xaldun konsepsiyalarining bugungi ijtimoiy fanlar uchun metodologik qiymati yuqori ekanligini ko'rsatdi. Mutafakkirning din, axloq, siyosat va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqidagi fikrlari hozirgi zamon konfliktologiya, sotsiokulturologik tadqiqotlar, diniy sotsiologiya va siyosatshunoslik kabi yo'nalishlarda qo'llanishi mumkin.

Shu tariqa, o'tkazilgan tahlillar natijasida Ibn Xaldunning din va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari nafaqat tarixiy manba, balki zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi, uning g'oyalari bugungi ijtimoiy jarayonlar talqinida ham dolzarbligini saqlab qolayotgani isbotlandi[6].

Ibn Xaldun tasavvuf oqimining yuzaga kelishi va keng yoyilishidan iborat genezisini tavsiflab, tasavvuf harakati Islom dini bilan bir vaqtda shakllangan, deb talqin etgani diqqatga sazovor. Ibn Xaldun XIX asrda yashab o'tgan Emil Dyurkgeymdan qariyb, asr avval marginallik fenomeni nazariyasini ilmiy asoslab, bu toifa ahlining ijtimoiy hayot, san'at, din va ilmda o'rin egallashi adolatdan ekanligini mu'taziliylarning "Al-manzila bayna-l-manzilatayn", ya'ni chegara doirasidagi muallaq axloqiy-diniy holat konsepsiyasini tahlil etish orqali asoslab bergan. Ibn Xaldun XIX asrda pozitiv sotsiologiya asoschisi Ogyust Kontning nuqtayi nazaridan qariyb asr avval "al-Amru bil-ma'ruf", ya'ni yaxshilikka da'vat etish nazariyasi orqali hayotga pozitiv yondashish, ijobiy, xayrixoh bo'lib yashash va ishlashni umr maslagi, deb bilishni keng targ'ib etishga erishgan[7].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ibn Xaldun o'z davrining nodir ijtimoiy jarayonlar mutafakkiri sifatida jamiyatdagi mavjud an'anaviy yondashuvlar va stereotiplardagi kamchilik, nuqsonlar, jumladan, o'tmishni soxtalashtirish, chalkashtirish, voqeliklarni o'z manfaatlariga moslashtirib bir yoqlama bayon etish kabi illatlarni keskin qoralagan. Har bir millat va qavmning kelib chiqishi, ularning taraqqiy topish yo'llari, tarixiy rivojlanish manbalarini chuqur o'rganish millatning uyg'onishiga, o'z qadru qimmatini bilishiga va istiqbol rejalarini aniqroq tuzishiga yordam berishini alohida qayd etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibn Khaldon, Wall Ad-Din 'Abd-Ar-Rahman. Muqaddimah. Prolegomenes d'Ebn-Khaldoun. Texte Arabe par E. Quatremere. Notices et Extraits des manuscrits de la Bibliotheque Imperiale (Academie des Inscriptions et Belles-Lettres), vols. XVI-XVIII. –Paris, 1858. -pp.33-54.
2. Бациева С.М. Историко-социологический трактат Ибн Халдуна “Мукаддима”. –М.: Наука, 1965. –С. 223.
3. Qayumova A.T. Ибн Халдун социологик қарашларида ижтимоий тузилмалар ва муносабатлар таҳлили: dissertasiya. Тошкент – 2022. -150 b.
4. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 86-98.
5. Игнатенко А.А. Ибн Халдун. –М.: Мысль, 1980. -с.141-142.
6. Иванов Н. А. “Китаб аль Ибар” Ибн Халдуна как источник по истории стран Северной Африки в XIV веке.-Арабский сборник. –М., 1959. -с. 3-45.
7. С. М. Хотамий. Ислом тафаккури тарихидан. –Т., 2003. -249 б.

